



QANDLI DIABET: ZAMONAVIY TIBBIYOT MUAMMOSI VA UNING YECHIMLARI.

Isaqova Zilolaxon Hayrulla qizi

Navoiy Davlat Universiteti Biologiya yoʻnalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezis qandli diabet kasalligini zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammolaridan biri sifatida yoritishga bagʻishlangan. Unda qandli diabetning kelib chiqish sabablari, asosiy turlari, klinik belgilari hamda kasallikning inson salomatligiga va jamiyat hayotiga koʻrsatadigan salbiy taʼsiri tahlil qilingan. Shuningdek, diabetning kech aniqlanishi natijasida yuzaga keladigan asoratlarni va ularning oldini olish masalalariga alohida eʼtibor qaratilgan. Tezida zamonaviy tibbiyotda qoʻllanilayotgan davolash usullari, insulin terapiyasi, glyukoza miqdorini doimiy nazorat qilish texnologiyalari hamda sogʻlom turmush tarzining ahamiyati yoritilgan. Qandli diabetga qarshi kurashda profilaktika choralari, erta tashxislash va aholi oʻrtasida tibbiy savodxonlikni oshirishning muhimligi asoslab berilgan.

Kalit soʻzlar: Qandli diabet, insulin, glyukoza, endokrin kasalliklar, 1-tur diabet, 2-tur diabet, insulin terapiyasi, glyukoza nazorati, profilaktika, sogʻlom turmush tarzi.

Abstract. This thesis is devoted to highlighting diabetes mellitus as one of the urgent problems of modern medicine. It analyzes the causes of diabetes mellitus, its main types, clinical symptoms, and the negative impact of the disease on human health and society. Special attention is also paid to the complications that arise as a result of late detection of diabetes and the issues of their prevention. The thesis highlights the treatment methods used in modern medicine, insulin therapy, technologies for continuous glucose monitoring, and the importance of a healthy lifestyle. The importance of preventive measures, early diagnosis, and increasing medical literacy among the population in the fight against diabetes mellitus is substantiated.

Keywords: Diabetes mellitus, insulin, glucose, endocrine diseases, type 1 diabetes, type 2 diabetes, insulin therapy, glucose control, prevention, healthy lifestyle.

Kirish. Qandli diabet — bu organizmda uglevod almashinuvining buzilishi bilan kechuvchi, qonda glyukoza miqdorining surunkali oshishi bilan tavsiflanadigan endokrin kasallikdir. Ushbu kasallik insulin gormoni yetishmovchiligi yoki uning taʼsir mexanizmining buzilishi natijasida yuzaga keladi. Bugungi kunda qandli diabet butun dunyo boʻylab millionlab insonlar salomatligiga jiddiy xavf solayotgan zamonaviy tibbiyotning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Qandli diabetda qonda qand moddasi keskin koʻpayib, siydik bilan chiqib turadi (tarkibida qand

moddasi bo‘ladi), tashnalik, og‘iz qurishi, ozib ketish, quvvatsizlik, badan qichishishi va boshqalar alomatlar kuzatiladi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, diabet bilan kasallanganlar soni yil sayin ortib bormoqda. Kasallik ko‘plab asoratlarni bilan kechib, mehnat qobiliyatining pasayishiga va hayot sifatining yomonlashuviga olib keladi.

Asosiy qism. Qandli diabet zamonaviy tibbiyot oldida turgan eng jiddiy va keng tarqalgan muammolardan biri hisoblanadi. Qandli diabetning asosiy ikki turi mavjud: 1-tur qandli diabet ko‘proq bolalar va yoshlar orasida uchraydi, insulin ishlab chiqarilishining keskin kamayishi bilan xarakterlanadi; 2-tur qandli diabet esa ko‘pincha kattalarda uchraydi va semizlik, kamharakat turmush tarzi hamda noto‘g‘ri ovqatlanish bilan bog‘liq holda rivojlanadi. Diabetning 1 turida bemor organizmida me‘da osti bezi hujayralari insulin ishlab chiqara olmaydi va ularni davolashda qand miqdorini pasaytirish maqsadida insulin preparatlari qo‘llanadi. Qandli diabetning 2 turida me‘da osti bezi orolcha hujayralaridan insulin ishlab chiqarish saqlanib qoladi, bunda qon tarkibidagi insulin miqdori me‘yorida yoki undan sal yuqoriroq bo‘ladi. Kasallikning zamonaviy jamiyatda keng tarqalishiga urbanizatsiya, yuqori kaloriyalik ovqatlar iste‘molining ortishi, jismoniy faollikning kamayishi va doimiy stress omillari sabab bo‘lmoqda. Qandli diabet o‘z vaqtida aniqlanmasa, yurak-qon tomir kasalliklari, diabetik nefropatiya, retinopatiya, neyropatiya kabi og‘ir asoratlarni keltirib chiqaradi. Bu esa nafaqat bemorning hayot sifatini pasaytiradi, balki sog‘liqni saqlash tizimi uchun ham katta iqtisodiy yuk bo‘lib xizmat qiladi. Qandli diabet — bir umrlik kasallik, uni butun hayot davomida davolash zarur. To‘lato‘kis davolanmaydigan va qon tarkibidagi glyukoza miqdori uzoq vaqt yuqori saqlanadigan bemorlarda Qandli diabetning tomir asoratlari — diabetga xos angiopatiyalar namoyon bo‘ladi. Qandli diabetning har ikkala turida ham davolashdan asosiy maqsad iloji boricha qondagi qand miqdorini kamaytirish, sog‘lom kishilardagi ko‘rsatkichga yaqinlashtirish, ya‘ni kompensatsiya holatiga erishishdir. Qondagi qand miqdorini me‘yorida saqlab turishning asosiy yo‘li qondagi glyukozani iloji boricha tez-tez aniqlash, bunday nazorat qandli diabetning insulinga bog‘liq 1-turida juda zarur.

Zamonaviy tibbiyot qandli diabetni nazorat qilish va davolashda bir qator samarali yechimlarni taklif etmoqda. Ularga insulin terapiyasi, glyukoza miqdorini doimiy nazorat qilish, zamonaviy dori vositalaridan foydalanish hamda individual parhez va jismoniy faollikni tashkil etish kiradi. So‘nggi yillarda texnologiyalarning rivojlanishi natijasida glyukoza sensorlari, insulin pompalarining joriy etilishi bemorlar hayotini sezilarli darajada yengillashtirmoqda. Bundan tashqari, qandli diabetning oldini olishda profilaktik choralarining ahamiyati katta. Sog‘lom turmush tarziga rioya qilish, muvozanatli ovqatlanish, muntazam jismoniy mashqlar va tibbiy ko‘riklardan o‘tish kasallik rivojlanish xavfini kamaytiradi. Aholi o‘rtasida tibbiy



savodxonlikni oshirish va erta tashxislash zamonaviy tibbiyotning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Qandli diabet bugungi kunda zamonaviy tibbiyot oldida turgan eng dolzarb va murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Qandli diabet nafaqat individual salomatlikka, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy tibbiyot yutuqlari qandli diabetni samarali nazorat qilish imkonini bermoqda. Davolash jarayonida dori vositalari, insulin terapiyasi, parhez va jismoniy faollikni to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Biroq kasallikni faqat davolash bilangina cheklanish yetarli emas, balki uning oldini olishga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu sababli qandli diabetga qarshi kurashda profilaktika choralari, erta tashxislash va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish muhim ahamiyatga ega. Tibbiy savodxonlikni oshirish, muntazam tibbiy ko'riklardan o'tish va individual yondashuvni kuchaytirish orqali ushbu kasallikning salbiy oqibatlarini kamaytirish mumkin. Qandli diabet muammosini hal etish tibbiyot xodimlari bilan bir qatorda jamiyatning barcha qatlamlaridan mas'uliyat va hamkorlikni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.I. Karimov, R.X. Xudoyberdiyev. Endokrinologiya asoslari. — Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyot, 2018.
2. I.I. Dedov. Qandli diabet. — Moskva: GEOTAR-Media, 2020.
3. Abdurahmonov A.A. Ichki kasalliklar (endokrin tizim kasalliklari). — Toshkent, 2018.
4. Islomov M.S. *Sog'lom turmush tarzi va modda almashinuvi kasalliklari*. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
5. American Diabetes Association. Standards of Medical Care in Diabetes. — Diabetes Care Journal, 2023.
6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Qandli diabet bo'yicha klinik tavsiyalar. — Toshkent, 2021.